

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA ISLOM DININING ESTETIK TARBIYASI MASALALARI

Milliy gʻoya, maʼnaviyat asoslari va
huquq yoʻnalishi talabasi

Asadova Sabina Azim qizi

Ilmiy rahbar

Xudjaqulova Feruza Raxmatovna

Navoiy davlat universiteti

dots. v.b., f.f.f.d. (PhD)

Xalqimizning asrlar davomida shakllanib kelgan boy estetik merosini oʻrganish jarayonida ajdodlarimiz yaratgan yuksak maʼnaviyat yoshlarni estetik ruhda tarbiyalashda dolzarb masalaga aylandi. Bu borada Alisher Navoiyning yoshlar estetik tarbiyasini islom dini bilan bogʻliq aytgan gʻoyalari muhim ahamiyatga egadir. Shu boisdan Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyandasi, millatimizning gʻururi, shaʼnu sharafini dunyoga tarannum qilgan oʻlmas soʻz sanʼatkoridir. Taʼbir joiz boʻlsa, olamda turkiy va forsiy tilda soʻzlovchi biron-bir inson yoʻqki, u Navoiyni bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiyga sadoqat va eʼtiqod bilan qaramasa. Agar bu ulugʻ zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir. Inson qalbining quvonchu qaygʻusini, ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan-kam topiladi. Ona tiliga muhabbat, uning beqiyos boyligi va buyukligini anglash tuygʻusi ham bizning ongu shuurimiz, yuragimizga avvalo Navoiy asarlari bilan kirib keladi. Oʻz estetik dunyoqarashini xalq dardi, yurt tinchligi, Vatan ravnaqi bilan bogʻlagan bobokalonimiz Alisher Navoiy ijodi yurtimiz yoshlari estetik tarbiyasida katta rol oʻynaydi. Yoshlar estetik tarbiyasini oshirishda Navoiy asarlarining mohiyati, undagi islomiy qarashlar adabiyotimiz tarixida aks etgan. Jahon adabiyotini yuksak choʻqqiga koʻtargan Alisher Navoiy estetik tafakkuri oʻzining hayotiyiligi va ulugʻvorligi bilan ajralib turadi. Bu borada davlatimiz rahbari oʻzining nutqlarida doimiy ravishda fikrlar bildirib, yoshlarni Navoiy bilan yaqindan tanishishga chorlab kelmoqda. Jumdan, “buyuk Alisher Navoiy

bobomizning «Odamiy ersang, demagil odami, Onikim, yo‘q xalq g‘amidin g‘ami» degan satrlarida qanchalik chuqur hayotiy hikmat, falsafa bor. Ya’ni, bu dunyoda insonlarning dardu tashvishlarini o‘ylab yashash - odamiylikning eng oliy mezonidir, xalqning gamidan uzoq bo‘lgan insonni odam qatoriga qo‘shib bo‘lmaydi, deb ta’kidlamoqda ulug‘ bobomiz. Bu o‘lmas satrlar bizning bugungi hayotimiz bilan, bizning orzu-intilish va amaliy harakatlarimiz bilan naqadar hamohang ekani odamni hayratga soladi. Barchamiz bu satrlarning naqadar chuqur va teran tarzda falsafiy mushohada bilan yozilganligini, yoshlarni insoniy qadriyatlar bilan estetik tarbiyalash zarurligini ko‘ramiz.

Navoiy islom diniga bo‘lgan e’tiqodi orqali yosh avlodning ongiga singib borganligini, birinchi galda estetik olam va go‘zallik real tabiatdan olinganligini, ikkinchidan xalq turmushini nuqsonlarini aniq va ravshan ochib berishi yoshlarni doimo go‘zallik, ko‘tarinkilik oliyjanob insoniylik tuyg‘ulari, komillik sari chorlaganini ko‘ramiz. Navoiy asarlaridagi sevgi va ishq-muhabbat tuyg‘ulari yuksak estetik tarbiya asosida bugungi yoshlarda ham namoyon bo‘lmoqda. Uning asarlarida nafosat olami oliyjanob tuyg‘ular, ya’ni islom dini bilan o‘zviy ravishda insoniy ideallar, axloqiy qadriyatlar, yosh qalblarning bir-biriga mehr-muhabbati, ishq, sevgi g‘oyalari bilan ifodalangan bo‘lsa, ayni paytda zamonamiz yoshlarida bunday dunyoviy tuyg‘ular yuzaga kelmoqda. Uning yaratgan qaxramonlari dunyoqarashi markazida ko‘proq Ollohga bo‘lgan sevgi, uning taqdirida yosh qalblar baxti, porloq saodati, sevishgan yoshlar dunyosi yotsa, bugungi yoshlarda avvalo sevgining hayotda buyuk ekanligini anglab etish, uni inson hayotining go‘zalligi sifatida e’zozlashdir. Shu sababli Navoiyning islomga nisbatan estetik g‘oyalarini ko‘rin mumkin. Shu boisdan Navoiyning asarlarida din, bu haqiqiy olam, uning lazzatlari haqida so‘zlaganlari orasida uchraydigan bi rqancha fikrlari shuni ko‘rsatadiki, Navoiyning islom dini masalasida, bu haqiqiy olamga qiymat berishda hayot, tabiat go‘zalliklarini, hayot lazzatlarini, “may”larini kuylovchi ulug‘ Hayyomning ham juda katta ta’siri, ishtiroki bo‘lgan”.

Sevgi va ishq-muhabbat deb atalgan oliy islomiy tuyg‘ular asosida Navoiy ijodini chuqur o‘rganish fuqarolik jamiyati barpo etishimizda yoshlarni matonatli, chidamli, bardoshli, oriyatli, andishali, qatiyatli, bir so‘z bilan aytganda or-nomusli qilib estetik

tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Binobarin, shunday yoshlarni tarbiyalashda zamona talablaridan kelib chiqqan holda insonparvarlik tuyg'ularini yuksak estetik ideallari bilan bog'lab, istiqbolning asl ma'no va mohiyatini teran anglagan holda hayotga tadbiq etish zarur. Shunday ekan, Navoiy asarlari va estetik qarashlari yoshlar uchun bebaho ne'mat ekanligini his etishlari, undan oqilona foydalana olish, moziyga xolisona nigoh tashlab kelajakka intilishlari lozim. Ayni chog'da Navoiy hayotini o'rganib, undan saboq olgan holda yashash har bir yosh avlod uchun foydadan xoli bo'lmaydi.

Navoiy o'z davrida barcha yoshdagi insonlar hayoti bilan bevosita o'zi qiziqadi va xalqning turmush tarzi, dardi alamlari bilan sirlashadi. Fuqarolar hayotini kelajakda farovon bo'lishning negizi ayni paytdagi yoshlar ekanligini, yosh avlod bilim olish kabi oliy tuyg'uni anglab yetsa, istiqbol porloq bo'lishini ta'kidlaydi. Shu bois Navoiy yoshlar bilan bahs munozaralar va suhbatlar, qizikarli uchrashuvlar tashkil etish ularning fikriga quloq tutish hamda yoshlar muammolarini jamiyatda xolisona hal etishga xarakat qiladi. U yoshlarni o'z e'tiqodiga sodiq qolish, haqiqiy insonparvar bo'lish xalqning g'am-tashvishlari bilan yashash umuminsoniy qadriyatlarga, milliy madaniyat va an'analarga doimo amal qilishga, jamiyatda mavjud turli nuqsonlar va kamchiliklarni bartaraf etishga da'vat etadi. Navoiy har bir yigit-qiz ilm, ma'rifat sohibi bo'lishi lozimligi, bu esa ularni kelajakda komil inson bo'lib yetishishi uchun zamin bo'lib xizmat qilishini ta'kidlaydi. U ertangi hayotning yaratuvchilari yosh avlod, ularning aql idroki, zehni, fahm-farosatiga bog'liqligini, yoshlar bilan hayotda doimo ilm yoki kasb-hunar sohibi bo'lishiga intilishlari lozimligini aytadi.

Bu borada O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov aytganlaridek, "Inson qalbining quvonchi qayg'usini, ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan-kam topiladi. Ona tiliga muhabbat, uning beqiyos boyligi va buyukligini anglash tuyg'usi ham bizning ongu shuurimiz, yuragimizga avvalo Navoiy asarlari bilan kirib keladi. Biz bu bebaho merosdan xalqimizni, ayniqsa, yoshlarimizni qanchalik ko'p bahramand etsak, milliy ma'naviyatimizni yuksaltirishda, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni kamol toptirishda shunchalik qudratli ma'rifiy qurolga ega bo'lamiz".

Yoshlar estetik tarbiyasida bevosita Navoiyning estetik qarashlari, o'g'itlari, pand-nasihatlari, ijodiy faoliyatining namoyon bo'lishi ularda kelajakka ishonch tuyg'usini, mustaqillikning noyob ne'matlarini asrab-avaylashni qaror toptirishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Zero, Navoiydek, allomaning hayot yo'llari o'zining notekis va murakkab tarixiy ildizlariga egaligi yoshlarimizni hamisha tinchlikni e'zozlashga, uni yanada yuksaklikka ko'tarishga chorlab boraverishi, yoshlarda o'tmish saboqlarini rivojlangan ilm-fan yutuqlari bilan uyg'un holda kamol toptirish kerak. Shunday ekan, yoshlar muammosi har bir davrda o'ziga xos ahamiyatga molik bo'lgan kelajak tushunchasi bilan bog'lanib, o'zida doimo vorislikni ijtimoiy ideallar asosida shakllantirib bormog'i darkor.

Adabiyotlar

- 1.Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –Toshkent, 2008. 176 bet.
- 2.Mirziyoev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – T.: O'zbekiston, 1-jild, 2017. 592 bet.
- 3.Zoxidov V. Ulug' shoir ijdining qalbi. - T.: "O'zbekiston", 1970, 495 bet.